

O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI VA ADABIY TILDA O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Niyozmetov Bunyodbek

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ta'lim sohasiga xususan, o'zbek tilini o'qitishdagi ahamiyati, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi uchun xos axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *kompyuter, dastur, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, metodika, multimedia*

Abstract. *This article discusses the importance of modern educational technologies in the field of education, in particular, the teaching of the Uzbek language, the skills necessary for the effective organization of the pedagogical process in the context of the information age specific to the modern Uzbek language and literature teacher formation of technological culture.*

Keywords: *computer, software, pedagogical technology, methodology, multimedia*

O'zbek tilining rivojlanishi milliy madaniyatimiz va o'zligimizni saqlashning muhim qismidir. Globalizatsiya jarayonida tilga bo'lgan ehtiyojning o'zgarishi, o'zbek tilini o'qitishning samaradorligini oshirish talabini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, adabiy tilda o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarning chuqur fikrlash, adabiy asarlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu tezisning asosiy maqsadi o'zbek tilini o'rgatish metodikasi va adabiy tilda o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy usullarning samaradorligini tahlil qilishdir. Buni quyidagi vazifalar orqali tadqiq etish maqsadga muvofiqdir:

1. O'zbek tili o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.
2. Zamonaviy o'qitish usullari va interfaol metodlarning samaradorligini aniqlash.
3. Adabiy tildagi o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni tahlil qilish.

O'zbek tilini o'qitishda turli metodlar va usullar qo'llaniladi, ularning har biri o'quvchilarning ehtiyojlari va maqsadlariga qarab tanlanadi. Shulardan biri sifatida grammatik-analitik yondashuvni olaylik, bu yondashuv

o'quvchilarga til qoidalarini mukammal o'rgatishga qaratilgan. O'quvchilar grammatika qoidalarini o'rganib, ularni amaliyotda qo'llashni o'zlashtiradilar. Masalan, "bu qanday jumla" yoki "bu qanday vaqt" kabi savollar orqali o'quvchilar o'rganilayotgan mavzuni yanada chuqurroq tushunadilar. Ushbu usulda o'quvchilar ko'proq nazariy bilimlarga ega bo'lishadi, lekin bu yondashuv faqat nazariy bilimlarni shakllantirish bilan cheklanib qolishi mumkin, bu esa ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Keyingi yondashuv esa kommunikativ yondashuv bo'lib, ushbu yondashuvda, aksincha, tilni muloqotda qo'llashga qaratiladi. O'quvchilar o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash, suhbatlashish, savol berish va javob berish ko'nikmalarini o'rganadilar. Misol uchun, o'quvchilar guruhlariga bo'lingan holda turli vaziyatlarda rollarni bajarishlari, bu orqali tilni amaliy ravishda o'rganishlari mumkin. Bunday mashqlar ularning tilni tushunish darajasini oshiradi, shuningdek, o'zaro muloqot qilish qobiliyatini ham kuchaytiradi.

Bundan tashqari, interfaol o'qitish usullari o'quv jarayonini faollashtirishda va o'quvchilarning qatnashuvini oshirishda muhim rol o'ynashini aytib o'tish joiz. Bunday o'qitish usullaridan biri sifatida klaster usulining samarasi o'laylik: bu usul yordamida o'quvchilar fikrlarini tizimli tarzda tashkil etadilar. Masalan, o'quvchilar "O'zbek adabiyoti" mavzusida klaster tuzishlari mumkin. Bu jarayonda ular adabiyotning asosiy yo'nalishlarini, mualliflarni va asarlarni ajratib ko'rsatadilar. Klaster usuli o'quvchilarga o'z fikrlarini bayon etishga, g'oyalarni bir-biriga bog'lashga yordam beribgina qolmasdan, balki matn mazmunini chuqur anglashga ham yordam beradi. Yoki dars jarayonida o'quvchilar o'rtasida diskussiya va debatlar tashkil etish usuli ham o'quv jarayonni ancha jonli tarzda o'tishiga xizmat qiladi. Misol tariqasida "O'zbek adabiyotidagi salbiy personajlar" mavzusida diskussiya tashkil etiladi va bu orqali passiv o'quvchilar ham mavzu yuzasidan munozaralar o'tkazish jarayonida qatnashishi mumkin bo'ladi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash va boshqa fikrlarni tinglash ko'nikmalarini o'rgatadi. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Yana shunday til o'rgatishning innovatsion usullardan biri sifatida mazmun va tilni birlashtirib o'qitish usuli (CLIL) ta'kidlash lozim. Ushbu usulning asosiy maqsadi o'quvchilarga faqat til o'rganish bilan cheklanmasdan, boshqa fanlar bo'yicha ham bilim olishlariga imkon yaratishdir. Masalan, geografiya darsida o'zbek tilida "O'zbekistonning tabiiy resurslari" haqida ma'ruza qilish orqali o'quvchilar bir vaqtning o'zida geografiya fanini va o'zbek

tilidagi terminologiyani o'rganishadi. CLIL usuli til o'rganishni yanada samarali qilishi bilan birga o'quvchilarda o'zining bilimni amaliyotga tatbiq qilishga ham undaydi.

CLIL usulining afzalliklaridan biri shundaki, o'quvchilar o'rganayotgan tilini real kontekstlarda qo'llashga o'rganadilar. Bunda ular bir vaqtning o'zida til qoidalarini o'zlashtirib, boshqa fanlarga oid bilimlarini kengaytiradilar. Natijada, til va mazmun birlashtirilgan holda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Bu usul orqali ta'lim berish o'quvchilarni mustaqil fikrlash va mavzularni chuqurroq anglashga undaydi.

Bugungi davrga kelib, zamonaviy ta'lim texnologiyalari til o'qitish jarayonini samarali va qiziqarli qilishda muhim o'rin tutadi. O'zbek tilini o'qitishda turli innovatsion metod va texnologiyalarning qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiribgina qolmasdan, balki til o'rganish jarayonini ham osonlashtirmoqda. Bevosita ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar – onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida o'quvchilar masofadan turib ham ta'lim olish imkoniyatiga ega. Masalan, "O'zbekiston adabiyoti" bo'yicha onlayn testlar va quizlar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishlari, ularni mustahkamlashlari va kamchiliklarini aniqlashlari mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tez va samarali baholay oladilar. Raqamli resurslar o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Adabiy asarlarni raqamli formatda o'qish o'quvchilarga yanada qulaylik yaratadi. Masalan, elektron kitoblar orqali asarlar bilan tanishish, ularga izohlar qo'shish va matn ustida ishlash imkoniyatlari mavjud.

O'zbek tilini o'qitishda amaliy tadqiqotlar va sinov darslari o'quvchilarning qaysi usullar orqali yaxshi o'zlashtirishlarini aniqlashga yordam beradi. Sinov darslari o'quvchilarning til ko'nikmalarini amaliy baholashga imkon beradi. Bunda kuzatish natijalari asosida yangi o'quv metodlari ishlab chiqilib, darslar davomida qo'llaniladi. Yangi o'quv metodlari, xususan, kreativ o'yinlar va interaktiv texnologiyalar o'quvchilarning o'zbek tilini o'rganish qobiliyatlarini yaxshilaydi. O'quvchilarni ko'proq darslarga qiziqtirish va o'qish jarayonida faol ishtirokini ta'minlash uchun interfaol va didaktik materiallar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib tayyorlangan savol-javoblar va lug'at ishlari ularning bilimni chuqurlashtirishda yordam beradi.

Xulosa va tavsiya sifatida aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'zbek tilini samarali o'rgatishda katta imkoniyatlar yaratadi. CLIL usuli va raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni o'qish

jarayoniga faol jalb qiladi va ularning bilimlarini mustahkamlaydi. O'qituvchilar zamonaviy interaktiv metodlarni qo'llab, adabiy matnlar bilan ko'proq ishlashlari va o'quvchilarni turli raqamli resurslardan foydalanishga o'rgatishlari lozim.

Bundan tashqari, o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda adabiy tildagi murakkab iboralarni tushunish qobiliyatini oshirishga e'tibor qaratish zarur. Sinov darslari orqali o'quvchilarning bilim darajasini muntazam kuzatib borish va yangi, interaktiv o'quv metodlarini joriy etish o'zbek tilini samarali o'rgatishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalar va CLIL usuli orqali o'zbek tilini o'qitish samaradorligini oshirish o'qituvchilar uchun yangi yondashuvlarni talab qiladi va ta'lim jarayonini yanada boy va mazmunli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizova, Gulasal. "O'zbek tili o'qitish metodikasida yangi yondashuvlar." *O'zbek tili va adabiyoti* jurnali, 2015.
2. Kuchkarov, Asqar. *Zamonaviy o'zbek tilini o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2017.
3. Sobirov, Erkin. "O'zbek adabiyoti va tilining o'qitish metodikasi." *Ta'lim va o'zbek adabiyoti* jurnali, 2018.
4. To'xliyev, Boqijon. *O'zbek tilini o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
5. Brown, H. Douglas. *Principles of Language Learning and Teaching*. 6th edition. Pearson Education, 2014.
6. Richards, Jack C., & Rodgers, Theodore S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. 3rd edition. Cambridge University Press, 2014.